

**NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA  
JALB QILISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI****Mamatova Aziza Bo'riboevna***Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya kafedrasida dotsenti v.v.b., pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD).***Xayrulloeva Marjona Tuychi qizi***Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika va  
inklyuziv ta'lim fakulteti 404-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limining samarali tashkil etilishida, sog'lom va nuqsonli bolalar o'rtasida ta'limiy diskrimantsiyani bartaraf etishga va bu jarayonda xalq og'zaki ijodining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.*

**Tayanch so'zlar va tushunchalar:** *xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar, inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, maktabga tayyorlov yoshi, maktab yoshi, nutqiy nuqson, diskrimantsiya, ta'lim-tarbiya, korreksiya, reabilitatsiya, emotsional holat, integratsiya.*

O'zbek an'anaviy bolalar folklor o'yinlarining mavzu qamrovi, ijro uslublari juda keng. Ijtimoiy hayot, kishilar munosabatlarining biron bir jabxasi yo'qki, ular o'yinlar nazariga tushmagan bo'lsin. Xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik, madaniyati deysizmi, kasb-hunar va ilim-bilim sohasi deysizmi, falsafiy, estetik, ahloqiy yohud ta'lim-tarbiya, ahloq-odob bobidagi qarashlari deysizmi-barchasi an'anaviy o'yinlarga mavzudir. Xususan, o'zbek bolalar folklor o'yinlari boshdan oyoq ma'naviy, ma'rifiy, ahloqiy tushunchalar bilan yo'g'rilgan. Xalqimizning ming-ming yillarda bosib o'tgan tarixiy yo'lida, tajriba-sinovlardan qayta-qayta o'tib, yaxlit va mukammal xolga kelib, bizgaga yetib kelgan bolalar folklor o'yinlarning mazmuni yo'nalishiga qarab quyidagicha turlarga bo'lish mumkin. Mavsumiy bolalar folklor o'yinlari: ilk bahor, yoz, qish mavsumlarida o'ynaladigan folklor o'yinlar.

Marosim bolalar folklor o'yinlari: rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'anaviy bayramlarda o'ynaladigan o'yinlar.

Oilaviy-maishiy bolalar folklor o'yinlari: "Mehmon-mehmon", "Kelin tushirish", "Kelin-kuyov", "Ona bola", "Ovqat pishirish", "Uy jixozlash", "Qo'g'irchoq o'yini", "Non yopish", "Er-xotin", "Alla-alla", "Beshik bezash", "Beshikka belash" va boshqalar.

Jismoniy harakatli bolalar folklor o'yinlari: "Quvlashmachoq", "Kes-kes", "Ko'rpa yopildi", "Ziyrak", "G'oz-g'oz", "Koptokni quvib et", "Olar soka", "Oq suyak", "To'p-tosh", "Sinish", "Chiqildo3", "Chopish", "Zuv-zuv", "Oq terakmi- ko'k terak", "Eshak mindi", "Lanka", "Ot o'yini", "Qiz quvdi" va boshqalar.

Bola nutqining rivojlanish davrida o'yinning ahamiyati judayam katta chunki nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu uning intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bolaning nutqi qanchalik boy va to'g'ri bo'lsa, unga o'z fikrlarini ifoda etish osonroq bo'ladi, uning atrofdagi voqelikni bilish imkoniyatlari qanchalik keng bo'lsa, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlari qanchalik mazmunli va to'liq bo'lsa,

uning aqliy rivojlanishi shunchalik faol bo'ladi. amalga oshirildi; bajarildi. Bizning nutqimiz juda murakkab va xilma-xildir, shuning uchun uni hayotning birinchi yillaridan boshlab rivojlantirish kerak. Muloqot nutqni rivojlantirishning yetakchi vositasi bo'lib, u har xil turlari faoliyati: ta'lim, maishiy, mehnat, o'yin orqali amalga oshiriladi. O'yin bolalar uchun yetakchi faoliyat bo'lganligi sababli uni xalq og'zaki ijodi vositasida bolaning faoliyat turi sifatida foydalanishimiz mumkin va milliy o'yinlar bunga misol bo'la oladi.

Milliy o'yinlarning lug'at jihatidan grammatik xilma-xilligi nutqning grammatik tuzilishini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalarga bir xil ildizli so'zlarni shakllantirishga o'rgatishda siz ushbu qo'shiqlardan foydalanishingiz mumkin, chunki ular bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan tasvirlarni yaratadilar, masalan, "laylak" tasviri. Bu nafaqat mushuk, balki "tuhum", "sonlar", "uchish", bilan qanday aloqasi bor. Bundan tashqari, bolalning juda kichkinaligidan tanish bo'lgan bir narsa yoki boshqa narsa bilan bog'liq ijobiy his-tuyg'ular bu rivojlanishni yanada muvaffaqiyatli va davomiy qiladi.

Milliy o'yinlar xalq she'riyati bilan bog'liq holda fonematik idrokni shakllantirishda katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi, bu maxsus intonatsiya qoidalari (ovozda unli tovushlarning ashula urg'usi, sekin temp va boshqalar), takrorlanuvchi fonemalarning mavjudligi bilan ta'minlanadi. , tovush birikmalari va onomatopeya. Beshinchi kuylar so'z va so'z shakllarini, iboralarni eslab qolish, nutqning leksik tomonini o'zlashtirish imkonini beradi. Kichkina hajmli bo'lishiga qaramay, milliy o'yinlar she'rlar bilan bog'liqlikda ta'lim va tarbiya imkoniyatlarining bitmas-tuganmas manbasini o'z ichiga oladi.

Insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayotining turli davrlarida harakatli o'yinlar muhim o'rin tutgan. Harakatli o'yinlar yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma'naviy kamol topgan. Xullas, harakatli o'yinlar odamzod taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etgan. Buning sabablari quyidagicha:

Birinchidan, insonda harakatli o'yinga nisbatan tabiiy extiyoj bo'lib, u hayotdagi bo'shliqni to'ldirgan, inson tanidagi ortiqcha kuchni sarflashga, etishmagan kuchni to'plashga yordam bergan.

Ikkinchidan, o'yinlar xalq tarixining ajralmas qismidir. Harakatli o'yinlarda insonning turmushi, mehnati, tajribasi, tashvishi, kurashi, yutuqlari o'z aksini topadi. O'yinlar orqali biz insoniyat tarixi, orzu- o'yi muammolari, niyatlarini o'rgansak bo'ladi.

Uchinchidan, harakatli o'yin inson madaniyatining eng qadimgi ko'rinishi, ko'pgina ma'naviy soha (raqs, tomosha-teatr, musiqa, sport, marosim kabi)larning chashmasi sifatida xizmat qilgan.

To'rtinchidan, harakatli o'yinlar avlod-ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi hisoblangan. Ota-bobolarimiz xalq harakatli o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan paco, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan. Sog'lom avlodlarni shakllantirishda harakatli o'yinlar asosiy omilga aylangan.

Beshinchidan, harakatli uyinlar eng samarali tarbiya vositasi. Bolalar harakatli va boshqa o'yinlar orqali hayotga tayyorgarlik ko'radi, turmushdagi qiyinchiliklarni engishni mashq qiladi, ish va kurashda g'alaba qilishni o'rganadi.

Oltinchidan, harakatli o'yinlar ajdodlarimizning tajribasinn o'zida uyg'unlashtiruvchi madaniy meros va zamondoshlarimizni, ayniqsa yosh avlodni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamol bo'lishga xizmat qiluvchi bebaho manbaadir.

O'zbek halq harakatli o'yinlari

Hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar: osilish va osilib chiqish: "Maymunchalar", "Oq ayiqlar"; yurish, yugurish: "Quvlashmashoq", "Mokki"; o'tirish, turish: "Baqa", "Tovuq va tulkilar"; to'xtash, sakrash: "Qarmoqcha", "Dungdan - do'nga", "Qarichma-qarich", "Mokkisimon sakrashlar".

Jismoniy sifatlari rivojlantiruvchi o'yinlar: "Tortishmashoq"; tezkorlik: "Kun va tun"; epcillik: "To'p uchun kurash", "Lapta", "Qirq tosh"; chidamkorlik: "Quvib et"; egiluvchanlik: "Ko'prik va mushuk", "Otib qochar".

Aqliy-ruhiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar: "Ta'qiqlangan harakat"; xotira: "Daqiqa", "Eslab qol - bajar", "Pirr - etdi", "O'ylab top"; hissiyot: "To'xta"; tafakkur: "Shaxmat"; ayyorlik: "Vandan-zo'ri"; jasurlik: "Cho'nqa shuvoq".

Uy-ro'zg'or ishlariga xos harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar: "Supur-supur", "Qovun uzatish", "Besh tosh".

Kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi o'yinlar: "Burgut va burgutchalar", "Otishma", "Insiz quyon".

Nutq va talaffuzni shakllantiruvchi o'yinlar: "Kim oladi", "Oq terakmi, ko'k terak", "Pahmoq kuchuk", "G'ozlar", "Oq quyonim".

Hisob-kitob va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi o'yinlar: "Besh tosh", "Lyanka", "Qirq tosh", "Soqqa".

Yilning turli fasllarida qo'llaniladigan o'yinlar: "Varrak", "Yomg'ir yog'alok", "Chillak", "Topishmashoq top", "Lyanka", "Tez ayt", "Yong'oq", "Qubba-1", "Qubba-2", "Soqqa".

Kunduz va tunda o'tkaziladigan o'yinlar: "Oq suyak", "Cho'loq qarg'a", "Tun va kun".

Suvda o'tkaziladigan o'yinlar: "Suvda quvlashmashoq", "Tez suzish", "Suv ostida suzish", "Qurbaqa va laylak", "Cho'rtan baliq".

Turli yoshli bolalar va kattalar o'rtasida o'tkaziladigan o'yinlar: "Quvlashmashoq", "Bekinmashoq", "Bayroqcha uchun kurash", "Kun va tun", "Oq terakmi, ko'k terak", "Yong'oq o'yini".

O'zbek xalq o'yinlarida turli nutq nuqsonlari va boshqa nuqsonlarni bartaraf qilish uchun va o'rgatish jarayonida keng ko'lamda foydalanish mumkin. Nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash uchun qo'llaniladigan o'yinlarni to'g'ri tanlash va bolalarning individualligini hisobga olish muhim. O'rgatish jarayonida esa ko'nikma va malakalarni shakllantirishga muvofiq o'yinlar tanlab beriladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutib o'zbek xalq o'yinlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- Harakat sifatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar;
- Darsni ayrim qismlarida qo'llaniladigan o'yinlar;
- Turli yoshdagi bolalar faoliyatida qo'llaniladigan o'yinlar;
- Bolalar jinsiga qarab qo'llaniladigan o'yinlar;
- Ruhiiy xisiiyotlarni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- Yorug' va qorong'u sharoitlarda qo'llaniladigan o'yinlar;
- Hayotiy zarur malakalarni egallashda yordam beruvchi va takomillastiruvchi o'yinlar;
- Sport faoliyatida qo'llaniladigan o'yinlar.

Shu tavsiflarni ochib berish masalalarini keyingi sahifalarda ko'ramiz.

Alohida shuni ham ta'kidlash joizki, aksariyat xalq harakatli o'yinlari o'z mohiyati va mazmuni bilan mehnat va turli kasb ko'nikmalari, odob-ahloq ma'naviy-madaniy qadriyatlar, ong, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur, idrok, xotira kabi hislatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Usmonxujaev T.S. SH.X.Isroilov. A.A.Pulatov. SH.A.Pulatov. "Milliy va harakatli o'yinlar" Darslik T.: 2015 y.
2. Xujayev P., Raximkulov K.D., Nigmanov B.B. Sport va xarakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. (Xarakatli o'yinlari) O'quv kullanma TDPU T.: 2008 y.
3. Azizova R.I. "Sport va xarakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" O'quv kullanma T.: 2010
4. Raximkulov K. D. "Milliy xarakatli o'yinlari" O'quv kullanma T.: 2012 y.
5. Mamatqul Jo'rayev. "O'zbek folklorshunosligi asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009

### QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga kuramiz.Toshkent "Uzbekiston" - 2017 y.
7. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik Uzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "Uzbekiston" NMIU, 2016 y.
8. Sh.Mirziyoev qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt tarakkiyoti va xalk faravonligining garovi."Uzbekiston" NMIU,2016y.
9. 2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Xarakatlar strategiyasi. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
10. Raximkulov K.D. Xarakatli o'yinlar (ma'ruzalar matni) 2001y.
11. Xujaev F, Murodov M, Mirsolixov.S. Xalk milliy o'yinlari 1- kism. Toshkent - 2001 y.
12. Normurodov A.N. Uzbek milliy o'yinlari T.: - 1999 y.
13. Raximkulov K.D., Usmonxujaev T.S. Jismoniy tarbiyadan bolalar va usmirlar uchun 1000 mashk xamda xarakatli o'yinlar. 2001y.

### AXBOROT MANBALARI:

14. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
15. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
16. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
17. [www.nadlib.uz](http://www.nadlib.uz) (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
18. <http://ziyonet.uz> – Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali